KLINIK LINGVISTIKADA QO‘LLANADIGAN AYRIM TERMINLARNING MAVZUIY GURUHLARI

Mahmudjonova Xurshidaxon Muxtorjon qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
muxtorjonqizixurshida@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy tadqiqotda klinik lingvistikaga oid terminlar mavjud manbalar asosida o‘rganilib, mazmuniy xususiyatlariga ko‘ra sohaga oid nazariyalarni bildiruvchi terminlar, klinik lingvistika sohalarini bildiruvchi terminlar, nutq bilan bog‘liq kasalliklarni anglatuvchi terminlar hamda davolash va kommunikatsiyaga kirishish bilan bog‘liq terminlar sifatida guruhlanadi. Terminlar ifodalovchi ma’nolari ham yoritib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *klinik lingvistika, klinik lingvistika terminologiyasi, nutq buzilishlari, kommunikatsiya, nutq terapevti.*

Аннотация: *В данном научном исследовании на основе имеющихся источников изучаются термины, Термины клинической лингвистики в соответствии с их смысловыми особенностями подразделяются на четыре тематические группы: термины, обозначающие теории, относящиеся к данной области; термины, обозначающие направления клинической лингвистики; термины, обозначающие заболевания и нарушения речи; а также термины, связанные с лечением и вступлением в коммуникацию. Также рассматриваются значения, выражаемые данными терминами.*

Ключевые слова: *клиническая лингвистика, терминология клинической лингвистики, нарушения речи, коммуникация, специалист по речевой терапии.*

Abstract: *This study examines terms related to clinical linguistics based on available sources and the terms of clinical linguistics are classified according to their semantic characteristics into four thematic groups: terms denoting theories related to the field, terms denoting branches of clinical linguistics, terms referring to speech-related disorders, and terms associated with treatment and communication. The meanings expressed by these terms are also discussed.*

Keywords: *clinical linguistics, clinical linguistics terminology, speech disorders, communication, speech therapist.*

Kirish. Tilshunoslik ilmi rivojlangani sari o‘rganish doirasi ham kengayib bormoqda. Klinik lingvistika nutqida nuqsoni bor insonlar bilan ishlaydigan amaliy tilshunoslik sohalaridan biridir. Bu soha tilshunoslik, tibbiyot, logopediya, otorinoloringologiya singari qator fanlar chorrahasida joylashgan nuqsonli nutq bilan ishlovchi nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishni talab qiladigan sohalardan biri. Albatta, nutq va tildagi nuqsonlar faqatgina fiziologik nuqsonlar bilan bog‘liq holda tibbiy jihatdan o‘rganilish singari lingvistik jihatdan ham o‘rganilishni talab qiladi. “Klinik lingvistika” kitobining muallifi Louis Kummings klinik lingvistikaga quyidagicha mukammal ta’rif beradi: “Klinik tilshunoslik insonning til qobiliyati buzilishining turlarini o‘rganadi. Bu odatda tilning har tomonlama buzilishini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, u tilni uzatish va qabul qilishning kengroq jarayonlarining buzilishini va vegetativ funksiyalarning buzilishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklarni ham qamrab oladi. Eng muhimi, u turli klinik kontekslarda nutq terapevtlari duch keladigan barcha kasalliklarni umumlashtirib o‘rganadi”. Nutqqa oid muammolar mamlakatimiz aholisida ham ko‘p uchramoqda. Klinik lingvistika yo‘nalishini yurtimiz O‘zbekistonda rivojlantirish uchun ham undagi terminlarni tadqiq qilish o‘rinli bo‘ladi.

Asosiy qism. Xorij mamlakatlarida poliklinika va tibbiy muassasalarda nutq terapevti shtati ham mavjud bo‘lib, ular eshitish qobiliyati yo‘qolgan, miyasi jarohatlangan, tug‘ma nuqsoni mavjud insonlarda nutq a’zolari bilan bog‘liq xastaliklarni (jumladan, yutinish, muloqot qilish) turli usullar yordamida davolashga harakat qiladi. Shuningdek, ular bemorlarga tashxis qo‘yish va parvarishlash ishlariga ham jalb qilinadilar. “Logopedist” va “nutq terapevti” atamalari ko‘pincha aloqa nutq buzilishlarini baholaydigan va davolaydigan mutaxassislarga nisbatan bir-birining o‘rnida ishlatiladi. Biroq bu atamalarni dunyoning turli burchaklarida biroz farqli ma’nolar bilan qo‘llaydilar. Ba’zi mamlakatlarda, masalan, AQSHda “nutq patologi” (SLP) atamasini afzal ko‘rilgan. Bu atama nutq, til va yutish buzilishlarini baholash va davolashni o‘z ichiga oladi. “Logopedist” termini esa Yevropa mamlakatlarida, xususan, Sharqiy Yevropada ko‘proq qo‘llaniladi. Bu umumiy atama bo‘lib, u nafaqat til patologiyasini, balki muloqot buzilishlarining boshqa turlarini, masalan, ovoz buzilishi va ravon so‘zlashuv buzilishlarini ham qamrab oladi. klinik tilshunoslik lingvistik nazariya va klinik ilovalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadigan kengroq soha hamdir. Bu nazariy va tadqiqotga yo‘naltirilgan nuqtayi nazardan til buzilishlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Klinik tilshunoslar til buzilishining tabiatini o‘rganishi va diagnostika vositalari va aralashuvlarini ishlab chiqishga hissa qo‘shishi mumkin, ammo ular defektologlar singari bevosita klinik xizmatlar taqdim qilishlari shart emas. Xulosa qilib aytganda,

logopediya aloqa va yutish kasalliklarini tashxislash va davolashga qaratilgan ixtisoslashgan soha bo‘lsa, klinik lingvistika til kasalliklarining nazariy jihatlarini o‘rganadigan kengroq ilm yo‘nalishidir.

Klinik tilshunoslik bir nechta sohalar kesishmasida joylashgani uchun ham undagi atamalar ham shunga mos. Shartli ravishda klinik lingvistikaga doir terminlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) sohaga oid nazariyalarni bildiruvchi terminlar;
2) klinik lingvistika sohalarini bildiruvchi terminlar;
3) nutq bilan bog‘liq kasalliklarni bildiruvchi terminlar;
4) davolash va kommunikatsiyaga kirishish bilan bog‘liq terminlar.

Quyida mavzuiy guruhlarga kiruvchi atamalarni izohlab o‘tamiz.

I. Sohaga oid nazariyalarni bildiruvchi terminlar:

Fonologiya inson axloqi in’ikosi nazariyasi (PHB (Phonology as Human behaviour) – bu nazariya 1979-yilda Uilyam Dayver tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, Ferdinand de Sossyurga ko‘ra “til – millat tafakkuri” qarashiga asoslanadi. Bunga ko‘ra har bir tildagi tovushlar tizimi shu millatning madaniyati, dunyoqarashini bildiradi.

Tafakkur nazariyasi (Mind theory) – inson tafakkuri va nutqni farqlovchi nazariya. Unga ko‘ra, nutqda ifodalanmasa ham tafakkur doimo ishlab turadi, shuningdek, tafakkurga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganiladi.

Kommunikatsiya nazariyasi – bunga ko‘ra, insonning ongidagi fikr va maqsadlar substansial xarakterga ega bo‘lib, ular butun umr bo‘yi ham yuzaga chiqmasligi mumkin. Shu sababli faqat kommunikatsiya jarayonida yuzaga chiqqan tushunchalargina o‘rganishga arziydi.

II. Klinik lingvistika sohalarini bildiruvchi terminlar:

Klinik fonetika, klinik fonologiya, klinik prosodika, klinik morfologiya, klinik sintaksis, klinik semantika, klinik pragmatika, klinik diskurs.

Jumladan, klinik pragmatika – so‘zlar qaysi kontekstda qo‘llanganda ma’no anglatishi usullarini o‘rganadi. Bo‘lim pragmatik buzilishlarni tavsiflaydi, tasniflaydi, turli metodlarni qo‘llash orqali bemorga yordam berish va davolashni nazarda tutadi.

III. Nutq bilan bog‘liq kasalliklarni ifodalovchi terminlar:

Afaziya [yun. a – inkor qo‘shimchasi va phasis – fikr] – gapira olmaslik, so‘zlash qobiliyatining buzilishi; miya shikastlanishi tufayli til qobiliyatini yo‘qotish. Afaziyaga bosh miya po‘stloq qavatdagi nutq markazlarining o‘zgarishi sabab bo‘ladi. Motor (harakat) va sensor (sezish) xillari bor. Motor afaziyada bemor gapirmoqchi bo‘lganda so‘zlarni topa olmasa, sensor afaziyada bemorga qaratilgan

so‘zlar ma’nosini anglab yetmaydi, o‘z nutqini nazorat qilolmaydi. Bu holat bosh miyaning og‘ir kasalliklari, rivojlanuvchi falajlik va boshqalarda uchraydi.

Alaliya (yunon. a – inkor yuklamasi va qad. yunon. lalia – nutq) – nutqiy buzilishning bir ko‘rinishi bo‘lib, u aqli raso, eshitish qobiliyati bekam-ko‘st bo‘lgan bolalarda nutqning bo‘lmasligi yoki nutqning juda kech paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Ko‘pincha ona qornida yoki tug‘ilish vaqtidagi bola miyasi chap yarim sharining shikastlanishi, shuningdek, uning nutqiy davrigacha bo‘lgan miya kasalliklari va jarohatlari alaliyaga sabab bo‘ladi. Keyinchalik bunday bolalarning nutqni egallashlarida muayyan qiyinchiliklar kuzatiladi: so‘z boyligi juda sekinlik bilan shakllanadi, ifodalarni qiyinchilik bilan yanglish tuzishadi.

Dizartriya [diz…yun. Arthroo – burro-burro gapiraman] – miya shikastlanishi yoki asab tizimining buzilishi tufayli nutq uchun ishlatiladigan mushaklarni boshqarishda qiyinchilik; tovush chiqarishda ishtirok etadigan mushaklar faoliyatining buzilishi natijasida noaniq, g‘uldirab gapirish. Dizartriya uzunchoq miyadagi IX, X va XII juft nervlar yadrosining zararlanganidan dalolat beradi. Miya qon tomiri kasalliklari, esefalitning ba’zi xili, miya poyasi, ko‘pincha, uzunchoq miya, miya po‘stlog‘i osti tugunlari va miyachaning zararlanishi sabab bo‘ladi.

Nutq apraksiyasi – miya shikastlanishi tufayli nutq uchun zarur bo‘lgan mushak harakatlarini rejalashtirish va bajarishda qiyinchilik.

Disleksiya – o‘qishda qiyinchilik.

Disgrafiya – yozishda qiyinchilik.

Til kechikishi – tengdoshlariga nisbatan til rivojlanishidagi kechikish.

Til buzilishi – tilning har qanday sohasida (fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika, pragmatika) buzilish.

Ovoz buzilishi – disfoniya bilan bog‘liq bo‘lgan sub- va supra-laringeal sozlamalarni o‘z ichiga oladi; ovozdagi tovush va tembr o‘lchovlarini hisobga olish uchun bo‘g‘in va ko‘p bo‘g‘inli farq; yanada taniqli ovoz sifati uchun sinxron va diaxronik farqdan foydalanish kerak; segmental bo‘lmagan fonetik va fonologik o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir.

Yoriq tanglay sindromi – fonologik o‘zgaruvchi va bayonot pertseptiv va ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan talqin qilinishi kerak; gapdagi segmentlarning taqsimlanishi.

Karlik – segmentar va nosegmental fonologik birliklar va fonetik qobiliyatlarni tizimli tahlil qilish; semantik, grammatik tuzilma hamda sotsiolingvistik o‘zaro ta’sirni o‘rganish karlar uchun og‘zaki ishlab chiqarish va tushunish uchun e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydigan hayotiy o‘lchovlardir.

IV. Davolash va kommunikatsiyaga kirishish bilan bog‘liq terminlar.

Til-nutq terapiyasi – til kasalliklarini davolashda qo‘llaniladigan turli xil texnika va strategiyalar.

Nutq terapiyasi – nutqdagi tovush buzilishlarini (artikulyatsiya, ovoz, ravonlikni) davolashda qo‘llaniladigan texnika va strategiyalar.

Augmentative and Alternative Communication (AAC) – Nutq yoki yozish orqali muloqot qila olmaydigan shaxslar tomonidan qo‘llaniladigan aloqa usullari (masalan, rasm kartalari, imo-ishora tili, aloqa qurilmalari).

Neyroplastiklik – miyaning shikastlanish yoki o‘zgaruvchan sharoitlarga javoban yangi aloqalar va yo‘llar hosil qilish qobiliyati. Nutq-til terapiyasi nevroplastiklikni rivojlantirishga va til ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.

Mavjud atamalar hali deyarli o’zbekchalashtirilmagan. Soha takomillashgani sari atamalarning o’zbekcha muqobillarini ishlab chiqishga harakat qilamiz. Ushbu atamalarni tushunish klinik tilshunoslikning asosiy tushunchalari haqida muhim ma’lumotlarni berishi mumkin. Bu soha til kasalliklarining murakkab tabiatini tushunish va odamlarga samarali davolash va yordam berishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Klinik lingvistika sohasi chuqur o‘rganilib, tadqiq etilsa, tegishli aralashuv va yordam bilan nutq buzilishi bo‘lgan shaxslar o‘zlarining muloqot qobiliyatlarini yaxshilashlari va to‘liq potentsiallariga erishishlari mumkin. Mazkur tadqiqot ana shu yo’lda bir yordamchi bo’ladi deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova M.Y. Logopediya.—T.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.—560 b.

2. Azimova I. O‘zbek tilidagi agrammatik afaziyada o‘tgan zamon shakllarining ifodalanishi // O‘zbekiston axborot agentligi Ilm-fan bo‘limi, 2020.

3. Azimova I. Production of Prototypical and Non-prototypical Combinations of Tense and Aspect in Uzbek Agrammatic Aphasia // International Journal of Central Asian Studies. Volume 19. 2015. – P.139-161.

4. Azimova I., Sayidaxmedova O., Jurayev J. Testing acquisition rate of the Uzbek morphemes of –(i)m and –ning in Uzbek children // Journal of Critical Reviews. ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 7, 2020. – P.394-396.

5. Cummings L. Clinical linguistics.—Great Britain: Edinburgh University Press, 2008.—XIV-2 p.

6. Feigin V. L., Brainin M., Norrving B., Martins S., Sacco R. L., Hacke W., Fisher M., Pandian J., Lindsay P. World Stroke Organization (WSO): Global

Stroke Fact Sheet 2022 // International Journal of Stroke. — 2022. — Vol. 17, № 1. — P. 18–29. DOI: 10.1177/17474930211065917.